

INKLYUZIV TA'LIMDA CHET TILINI O'QITISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17786378>

Saidova Zumrad Abdullo qizi

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Mo'minov Doston Akbar o'g'li

Jizzax viloyati Forish tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida chet tilini o'qitishning mazmuni, tamoyillari va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning, jumladan, jismoniy, ruhiy yoki sensor cheklavlarga ega bo'lgan bolalarning ham yagona ta'lim tizimida samarali o'qishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, chet tili darslarida individual yondashuv, differensial o'qitish, kommunikativ metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada maxsus pedagogik yondashuvlar, moslashtirilgan ta'lim resurslari, AKT vositalaridan foydalanish, rag'batlantiruvchi o'quv muhiti yaratish kabi amaliy masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inklyuziv guruhlarda chet tilini o'qitishda uchraydigan muammolar va ularning samarali yechimlari tahlil etiladi. Natijada inklyuziv sinflarda chet tilini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar

Inklyuziv ta'lim, chet tilini, maxsus pedagogika, differensial yondashuv, inclusive education, kompensator texnologiyalar, individual ta'lim dasturi, pedagogik moslashtirish, kommunikativ metod, ta'limda AKT, integratsiyalashgan darslar, ta'lim jarayonini individuallashtirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuzivlik tamoyillarining kuchayishi xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Bugungi kunda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli rivojlanish darajasi, turli ehtiyoj va qobiliyatga ega bo'lgan bolalarning birgalikda boshqa sog'lom bolalar bilan ta'lim olishi pedagoglar oldiga yanada mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi.

Ayniqsa chet tillaridan ingliz tilini o'qitishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial, moslashtirilgan va ko'pkanalli (multisensor) metodlardan foydalanish dolzarb bo'lib bormoqda.

Inklyuziv ta'lim sinflarida ham ingliz tili darslarini tashkil qilishining asosiy maqsadi - barcha o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga teng qatnashuvi, til ko'nikmalarini o'z imkoniyat doirasida rivojlantirishi va ijobiy til muhiti orqali muloqotga kirishishiga sharoit yaratishdir.

Bu jarayonda o'qituvchidan moslashuvchanlik, individual yondashuv, o'quv jarayonini sezgi organlari bilan ham boyitish, baholashni moslashtirish kabi kompetensiyalar talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, inklyuziv sinflarda ingliz tilini o'qitish nafaqat pedagogik jarayon, balki har bir bolaning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida qaraladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ingliz tilini o'qitishda e'tibor beriladigan asosiy jihatlar:

1. Moslashtirilgan o'quv material - soddalashtirilgan matnlar, katta shrift, aniq rasmlar va piktogrammalardan foydalanish. Matnlar kam so'zli, vizual qo'llab-quvvatlovchi elementlarga boy bo'lishi kerak, shunda bola oson tushunadi va diqqatini jamlaydi.

2. Multisensor yondashuv - bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va harakat orqali o'qitish. Masalan, real buyumlar (fruit, toys), qo'shiqlar, ritmlar, she'rlar va jismoniy harakatlar yordamida o'rgatish (TPR: "Stand up", "Jump", "Show me the red ball"). Bu metod diqqat buzilishi yoki nutq qiyinchiliklari bo'lgan bolalar uchun eng samaralisi hisoblanadi.

3. Moslashtirilgan topshiriqlar - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola imkoniyatiga qarab vazifa beriladi va har bir mavzu bo'yicha uch xil murakkablikdagi topshiriq ishlab chiqiladi:

A: rasmni tanlash;

B: so'zni aytish;

C: gap tuzish.

Shu yondashuv hech kimni ortda qolgan his qilmaslik va o'ziga ishonchni oshirishga yordam beradi.

4. Sezilarli qo'llab-quvvatlash (scaffolding) - boshlang'ich so'z qoliplari ("This is a ..."), tayyor gap namunasi va qadam-baqadam ko'mak berish orqali bola xavfsiz muloqot muhitida o'qiydi va muloqotga kirishadi.

5. Xatolarni tuzatish – bolalarda xatoni keskin to'xtatish stressni keltirib chiqaradi. Eng samarali usul – bolaga yana imkon berish, qo'shimcha vaqt ajratish, vazifani yana bir bor sinab ko'rish.

6. Texnologiyadan foydalanish - TTS (matnni ovoz chiqarib o'qib berish), audio kartochkalar, wordwall va Quizlet kabi o'yinlar orqali o'qitish. Bu yondashuv sensor qiyinchiliklar va diqqatni jamlash muammolarini kamaytiradi.

7. Sodda va tushunarli topshiriqlar – bir vaqtning o'zida bitta topshiriq beriladi, murakkab jumlar ishlatilmaydi. Masalan: "Circle the cat", "Listen and point".

8. Jismoniy harakat va vizual signallardan foydalanish – tana a'zolari, imo-ishora va vizual belgilardan foydalangan holda topshiriqlarni ko'rsatish. "Start-stop" belgilaridan foydalanish ayniqsa autistik spektorida buzilishi bo'lgan bolalar va zaif eshituvchi bolalar uchun muhimdir.

9. Baholash jarayonlarini moslashtirish – bolalar uchun baholash bir nechta variantda bo'lishi kerak:

- rasm orqali javob;
- so'zni aytish;
- tanlash orqali baholash;
- yoza emas, og'zaki topshiriqlar.

10. Ijobiy va xavfsiz muhit yaratish eng muhim omillardan bir bo'lib, unda juda tez gapirishdan qochish, bolaning kichik yutuqlarini darhol rag'batlantirish va tanqidni kamaytirib, qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berish maqsad qilib olinadi.

"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ingliz tilini o'qitishda e'tibor beriladigan jihatlar":

Moslashtirilgan o'quv materiali: "Fruits" mavzusida har bir meva rasmini katta shrift bilan qog'ozga chiqarib, pastki qismida piktogramma qo'shiladi. 🍏 Apple, 🍌 Banana, 🍇 Grapes.

Har bir yangi so'zni 2-3 ta rasm bilan ko'rsatib, talaffuzini bir necha marta takrorlatiladi.

Multisensor yondashuvda TPR usuli orqali "Jump!", "Clap your hands!", "Touch your nose!" kabi buyruqlar beriladi. Harakat bilan birga qo'shiq yoki ritmli she'rlar qo'shish; bola bir vaqtning o'zida eshitadi, ko'radi va harakat qiladi.

Moslashtirilgan topshiriqlar:

- A: Rasmni tanlash: 🍏, 🍌, 🍇 – "Circle the Apple";
- B: So'zni aytish: "Say Apple";
- C: Gap tuzish: "I like Apple".

Har bir bola o'z darajasiga mos variantni bajaradi, ortda qolgan o'zini orqa qolib ketayotganligini sezmaydi.

Scaffolding (qadam-baqadam qo'llab-quvvatlash), misol uchun Yangi so'z: "Ball". Bunda 1-qadam: Rasmini ko'rsatib aytish, 2-qadam: "This is a ..." iborasi bilan gap tuzish, 3-qadam: "I like the ball" jumlasini o'qituvchi yordamida yaratiladi. Umumiy ma'noda bosqichma-bosqich yordam beriladi, so'z va gaplar takrorlanadi.

Texnologiyadan foydalanishda wordwall orqali "Match the word with picture" o'yini o'ynaladi. Quizlet bilan flashcardlar TTS yordamida so'zlarni tinglash mashqi bajariladi. Sensor qiyinchiliklari yoki diqqat buzilishi bo'lgan bolalar uchun vizual va audio yordamni birgalikda ishlatish tavsiya qilinadi.

Sodda topshiriqlardan foydalanish. Misol uchun: "Listen and point: cat, dog, bird". Bir vaqtning o'zida ham buyruq, ham murakkab mazmundagi jumalarni bermasdan soddalashtiriladi.

Jismoniy harakat va vizual signallardan foydalanishda "Stand up", "Sit down", "Turn around" buyruqlari imo-ishorada ko'rsatiladi. Autizmli va eshitish qiyinchiligi bo'lgan bolalar uchun vizual belgilar va tana harakatlari foydali bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilini inklyuziv muhitda o'qitish o'quvchilarning individual ehtiyojlari, rivojlanish darajalari va o'rganish uslublarini chuqur tahlil qilishni talab qiladigan murakkab pedagogik jarayondir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda til o'rganish jarayonining o'ziga xos kechishi, ularning idrok, diqqat, xotira va muloqot ko'nikmalaridagi farqlarni inobatga olgan holda darslarni moslashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu sababli inklyuziv chet tili ta'limida Universal Design for Learning (UDL), konstruktivizm, multisensor metodlar, TEACCH yondashuvi va terapevtik o'yin texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi asosiy ilmiy-metodik tamoyil sifatida qaraladi.

UDL tamoyillari barcha bolalarga teng imkoniyat yaratishning eng samarali modeli hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quv materiallarini bir nechta shakllarda – vizual tasvirlar, animatsiyalar, audio yozuvlar, harakatli o'quv topshiriqlari orqali taqdim etishni nazarda tutadi. Bunday ko'p kanalli ta'lim axborotni bir xil shaklda qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilarda til o'rganishni sezilarli darajada yengillashtiradi. Shuningdek, o'quvchilarga o'z fikrlarini og'zaki, rasm, tanlash yoki harakat orqali ifoda etish imkoniyati berilishi ularning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi va muloqotga faol kirishishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'limda konstruktivistik yondashuvning qo'llanishi chet tilini o'rganishni jonli, faol va mazmunli jarayonga aylantiradi. O'quvchining tayyor

bilimni qabul qilishi emas, balki sinov, tajriba, guruhli hamkorlik, rolli o'yinlar va real vaziyatlar orqali tilni o'zlashtirishi konstruktivizmning asosiy g'oyasidir. Bunday yondashuv kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga, o'quvchining o'z fikrini erkin ayta olishi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishining qo'llab-quvvatlanishiga yordam beradi.

Autistik spektridagi buzilishi bo'lgan bolalar uchun TEACCH (Treatment and Education of Autistic and Communication Handicapped Children) yondashuvi eng samarali metodikalar sirasiga kiradi. Dars strukturasining aniqligi, vizual belgilarning qo'llanishi, vazifalarning bosqichma-bosqich chizmasi o'quvchida xavfsizlik hissini shakllantiradi va stress darajasini kamaytiradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchini til o'rganish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Inklyuziv ta'lim sinflarida chet tili o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi ham muhim metodik vositadir. Sensor va harakatli o'yinlar, jarangdor qo'shiqlar, ritmik mashqlar hamda interaktiv platformalarning ishlatilishi bolalarning diqqatini faollashtiradi, eslab qolish darajasini oshiradi va mavzuni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yin asosidagi topshiriqlar til o'rganishni sezilarli darajada qiziqarli va mazmunli qiladi, ayniqsa nutq buzilishi, autistik, intellektual rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun juda foydali hisoblanadi.

Shuningdek, modullar asosida bosqichma-bosqich o'qitish yondashuvi o'quv jarayonining tizimli bo'lishini ta'minlaydi. Har bir modulning kichik va aniq maqsadlari bolaning kognitiv yuklanishini kamaytiradi va muvaffaqiyat hissini doimiy ravishda his qilishiga yordam beradi. Bu o'quvchining o'z-o'zini baholashi va darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Eng muhimi, inklyuziv chet tili ta'limida ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi omildir. O'qituvchining tinch, quvvatlovchi munosabati, kichik yutuqlarini rag'batlantirishi, xatolarni jazosiz tuzatish, ijobiy muloqot ohangi – bularning barchasi bolada ishonch, xavfsizlik va muloqotga kirisha olish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida chet tilini o'qitish har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olishga asoslanidhi doim asosiy g'oya sifatida qaraladi. Moslashtirilgan o'quv materiali, multisensor yondashuv, vizual va texnologik vositalardan foydalanish darslarni nafaqat samarali, balki qiziqarli qiladi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning o'ziga ishonchi, motivatsiyasi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi oshib boradi. Shuningdek:

har bir bola darajasiga mos vazifalarni ishlab chiqish, murakkablikni asta-sekin oshirish;

xatolarni sekinlik bilan tuzatish, ijobiy rag'batlantiruvchi va xavfsiz muhit yaratish;

multisensor yondashuvni qo'llash: ko'rish, eshitish va harakatni birlashtirish; texnologiya va interaktiv o'yinlardan keng foydalanish: audio, video, ilovalar va onlayn platformalar;

baholashni moslashtirish: rasm, og'zaki va tanlash usullari orqali har bir bolaning muvaffaqiyati aniqlanadi.

Inklyuziv yondashuv – bu faqat bilim berish emas, balki har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'zini ishonchli va qadrli his qilishi uchun imkon yaratishdir. Chet tilini o'qitish jarayonida bunday metodlar nafaqat akademik natijani oshiradi, balki bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari, kommunikatsiyasi va stressga chidamliligini mustahkamlaydi.

Shu yo'l bilan biz har bir bolaning o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishiga yordam beriladi.

Xulosa

Inklyuziv ta'lim sharoitida chet tilini, xususan ingliz tilini o'qitish zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuvini talab qiladigan murakkab, ammo nihoyatda samarali jarayondir. Mazkur maqolada ta'kidlanganidek, har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning individual rivojlanish sur'ati, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda moslashtirilgan o'quv material, multisensor metodlar, bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash, texnologik vositalardan foydalanish va moslashtirilgan baholash kabi usullar o'quv jarayonining ajralmas qismidir.

Inklyuziv yondashuvning asosiy mazmuni - barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish, ularning til o'rganish jarayonida faol ishtirok etishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini mustahkamlashdan iboratdir.

Chet tili darslarini vizual, audio va harakatga asoslangan vositalar bilan boyitish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun nafaqat tushunishni osonlashtiradi, balki motivatsiyani oshiradi va darsni qiziqarli qiladi.

Shu bois ingliz tilini inklyuziv muhitda o'qitish faqat bilim berish emas, balki har bir bolani jamiyatga to'liq integratsiyalashuviga xizmat qiladigan tarbiyaviy jarayondir. O'qituvchining moslashuvchanligi, mehribon va qo'llab-quvvatlovchi munosabati, dars jarayonini to'g'ri tashkil etishi orqali har bir bola o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi.

Demak, inklyuziv ta'limda chet tilini o'qitish - bu barcha o'quvchilar uchun ochiq, adolatli va samarali ta'lim muhitini yaratishning eng muhim yo'llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF 152-sonli farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarori;
5. Ainscow, M. Developing Inclusive Education: Theory and Practice. London: Routledge, 2016 (Inklyuziv ta'lim tamoyillari va amaliy yondashuvlar bo'yicha yetakchi manba);
6. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Education Systems. Paris, 2020 (Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tavsiyalar);
7. Tomlinson, C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. ASCD, 2017 (Individual yondashuv, differensial ta'lim va moslashtirilgan topshiriqlar bo'yicha asosiy manba);
8. Pritchard, A., & Woollard, J. Psychology for the Classroom: Constructivism and Social Learning. Routledge, 2013 (Multisensor o'qitish, qo'llab-quvvatlash strategiyalari va o'quvchi faoliyatini tashkil etish haqida);